



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Қорақалпоғистон Республикаси

230100 No'kis qalasi, G'a'rezsizlik ko'shesi, 59A u'y, Tel.+99861 2227436 Faks:+998612227365 E-mail:exspertiza.rk@mail.ru. www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: EMBERGENOV JENGISBAY SAGINBAEVICH

Sana:03-05-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 93876

Obyekt nomi «Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanidagi «KS-1-21-1» kollektor tarmoqlarini tizimli ta'mirlash-tiklash» ob'ektining ishchi loyiha hujjatlariga tayyorlangan»

Buyurtmachi - «Qoraqalpog'iston suv qurilish invest» DM

Bosh loyihachi - «UZGIP» MChJ Qoraqalpog'iston sho'ba korxonasi.

Litsenziya AL-001766 sonli 2021 yil 28 aprelda O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi tomonidan berilgan.

Moliyalashtirish manbai - Budget mablag'lari hisobidan.

Bosh pudratchi - tender savdolariga asosan aniqlanadi.

Qurilish turi ta'mirlash-tiklash ishlari.

Murojaat raqami: № 87498

1. Loyihalash uchun asos

- 2023 yili 18 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida suv xo'jaligi bo'yicha o'tkazilgan 9-son yig'ilish bayoni.
- 2023 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi o'rinosi tomonidan tasdiqlangan va Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xujaligi vazirligi bilan kelishilgan loyihalash topshirig'i.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xujaligi xuzuridagi Meliorativ ekspeditsiya tomonidan 2023 yili «KS-1-21-1» «O'zaqbay ko'l» meliorativ tizimini ta'mirlash va tiklash ishlari loyihasining annotatsiyasi.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xujaligi xuzuridagi Meliorativ ekspeditsiya tomonidan 2022-2023 yillari tasdiqlangan nuqson dalolatnomalari.
- Loyiha va tadqiqot ishlari uchun 9.03.2023 yil №25945 sonli tuzilgan shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

«Ishchi loyiha»ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha-smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Loyhaning asosiy maqsadi – Chimboy tumanidagi «KS-1-21-1» kollektor tarmoqlarini tizimli ta'mirlash-tiklash natijasida 1950,0 ga yerning yer osti suvlar sathi 1,5-2,0 metrgacha pasayishiga erishiladi. Ob'ektga bog'langan maydon – 1765,0 ga.

Loyixada ko'zda to'tilgan.

- kollektoring ta'mirlash-tiklash qilinadigan qismi - 78,0 km.
 - quvurli utish joylarini ta'mirlash - 9 dona;
 - kanal osti quvirlarini ta'mirlash - 4 dona;
 - kuzatuv quduqlarini qayta tiklash - 8 dona;
 - "DIVER" uskunalarini o'rnatish - 21 dona.
- meliorativ holati yaxshilanadigan maydon - 1765 ga

Loyihada belgilangan ishlarning asosiy ish hajmlari:

Jami to'proq ishlari - 279 492 m³, yig'ma beton va temir beton - 81,92 m³, ўeben - 116,95 m³, tosh - 78 m³.

- Qurilishning davomiyligi - shartnomaviy majburiyatlarga asosan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligining 2023 yil 10 apreldagi №09/6 sonli texnik kengashi yig'ilishi bayoni.

Loyiha bosh rejasidagi quyidagi idoralar va toshkilotlar bilan kelishilgan: Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri o'rribbosari, "Qoraqalpog'iston suv qurilish invest" DM, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyasi, Chimboy tumani xokim o'rribbosari, KS-1-21-1 sistemasi boshlig'i, Chimboy tumani fermerlar kengashi bo'limi, "Qamis Arik" OFY.

6. Ekspertiza natijalari.

Loyihani ko'rib chiqish jarayonida ekspertlar tomonidan aniqlangan eslatmalar, qo'shimchalar va xato kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan ishchi loyiha - smeta hujjatlari qayta ishlab chiqildi.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 2 866 089,467 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 112 445,413 ming so'mga kamaytirilib, 2 753 644,054 ming so'm qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari (Asbob-uskunalar xarjatlarisiz): 2 260 284,512 ming so'm.

Asbob-uskunalar: 198 326,251 ming so'm.

QQS: 295 033,291 ming so'm.

Bundan tashqari buyurtmachining boshqa xarajatlari: 366 307,5 ming so'm.

Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tastiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bop 29

bandiga muvofiq “Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir”.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, barcha me’yor talablari bajarilishi va buyurtmachi tomonidan ob’ektning qurilish materiallar, asbob-uskunalari qiymatlarini va ishlar hajmini maqullash sharti bilan «Qoraqalpog’iston Respublikasi «Chimboy tumanidagi «KS-1-21-1» kollektor tarmoqlarini tizimli ta’mirlash-tiklash» ob’ektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi. Tavsiya qilingan ob’ekt qiymati buyurtmachining pudratchi bilan shartnoma tuzishga asos bo’lmaydi.

Bosh mutaxassis: IBADULLAYEV AZIZBEK ALPISBAY ULI

Ishtirokchi ekspertlar:

TAJEDDINOVA ELMIRA AZATOVNA

IBRAGIMOV MAXSETBAY JALGASBAEVICH

Камрон_Билдинг_2020_Олтинкул_Мактаб [Faylni ko'rish](#)